

JALOLIDDIN MANGUBERDI HAYOTI

Yursinboyev Jahongir Mehrojidin o'g'li

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi

Annontatsiya: Jaloliddin Manguberdining hayoti, siyosiy va harbiy kurashlari, unga nisbatan amalga oshirilgan hiyonatlar. Taxt egasi bo'lsa ham unga xoinlik qilganlar, qo'rroq otasi haqida.

Kalit so'zlar: Oychechak turkman, mank, Turkon xotun, qipchoq, Kirmon, Chingizzon

Jaloliddin Manguberdi qadimgi davrdan 13-asr o'rtalarigacha Xorazm hududida mavjud bo'lgan Xorazmshohlar davlatining so'nggi hukmdori (1220—31), mohir sarkarda. O'zbek davlatchiligi tizimidagi yirik sulolalardan biri — anushteginiylardan. Takash vafotidan so'ng Xorazmshohlar davlati taxtiga Qutbiddin Muhammad o'tirdi. U otasining Aloiddin laqabini, keyinroq esa Sanjar (ikkinchisi) nomini qabul qildi. Onasi — Oychechak turkman kanizaklardan bo'lgan. Jaloliddin burnida xoli (mank) bo'lgani uchun Mankburni nomi bilan atalgan. Keyinchalik bu nom talaffuzda o'zgarib "Manguberdi" nomi bilan mashhur bo'lib ketgan. Jaloliddin Manguberdi voyaga yetgach, otasi uni G'azna, Bomiyon, G'ur, Bust, Takinobod, Zamindovar va Hindiston hududlarigacha bo'lgan yerlarga hokim va taxt vorisi etib tayinlagan (1215). Biroq Muhammad Xorazmshohning onasi Turkon xotun va qipchoq amirlarining qat'iy noroziligi sababli Muhammad Xorazmshohning kenja o'g'li Qutbiddin O'zloqshoh foydasiga vorislidkan mahrum etilgan. Jaloliddin Manguberdi otasining harbiy yurishlarida ishtirok etib, o'zining jasur jangchi, iqtidorli sarkarda ekanligini namoyish etgan. Chingizzon boshchiligidagi mo'g'ul qo'shiniari Movarounnahrga bostirib kirib birin-ketin shaharlarni egallab, Samarqandga yaqinlashganlarida Xorazmshoh Muhammad Kaspiy dengizi bo'yida joylashgan Obeskun shahri yaqinidagi Ashur ada orolida edi. Og'ir betob bo'lgan Muhammad o'g'iliarini yoniga chorlab, so'nggi damda Jaloliddin Manguberdini o'z o'rniiga Xorazmshoh etib tayinlagan. Jaloliddin Manguberdi ukalari Oqshoh va Qutbiddin O'zloqshohlar bilan birga Gurganj mudofaasiga oshiqadi. Lekin Gurganjdagagi qipchoq amirlari Turkon xotunning akasi Xumorteginni sulton deb e'lom qilib, Jaloliddin Manguberdiga qarshi suiqasd uyuştirmoqchi bo'ladilar. Bundan xabar topgan Jaloliddin Manguberdi safdoshi, sarkarda Temur Malik boshchiligidagi 300 suvoriy bilan Gurganjni tark etib Xurosonga yo'l oladi. Niso shahri yaqinida uni 700 nafar mo'g'ul suvoriysi kutardi. Jaloliddin Manguberdi shiddatli jangdan so'ng ularni tor-mor etib, Nishopurga keldi. Bu yerdan u barcha viloyat hokimlariga nomalar jo'natib, mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda birlashishga da'vat etdi, bir oydan so'ng G'azni tomon yurdi. Yo'lda unga Hirot voliysi (hokimi) qaynotasi Aminalmulk 10 ming kishilik qo'shin bilan kelib qo'shildi. Qandahorni qamal qilib turgan mo'g'ul qo'shiniari bilan bo'lgan 3 kunlik jangda Jaloliddin Manguberdi ularni tor-mor keltirdi. 1221-yil u G'azniga keldi. Bu yerda unga xalaj qabilasi boshlig'i Sayfuddin Ig'roq, Balx voliysi A'zam malik, afg'onlar sardori Muzaffar malik, qarluqlar boshlig'i Hasan Qarluq kelib qo'shildilar. Ularning har biri ixtiyorida 30 ming kishilik qo'shin bor edi. Jaloliddin Manguberdining o'zidagi kuchlar esa 60 ming suvoriy edi. Jaloliddin Manguberdi Valiyon qal'asini qamal qilayotgan Takajuk va Malg'ur boshchiligidagi mo'g'ul qo'shiniga hujum qilib, 3 kunlik jangdan so'ng ularni tor-mor keltirgan, 1000 dan ortiq mo'g'ul askari o'ldirilgan, omon qolgan qismi Panjshir daryosidan o'tib, ko'priki buzib tashlagan. Bu Jaloliddin Manguberdining mo'g'ullar ustidan qozongan dastlabki yirik g'alabasi edi.

Chingizzon Jaloliddin Manguberdiga qarshi Shiki Xutuxu no'yon boshchiligidagi 45 ming kishilik qo'shin jo'natadi. G'azni yaqinidagi Parvon jangi (1221)da Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullar ustidan ajoyib g'alabani qo'lga kiritadi. Biroq jangdan so'ng Jaloliddin Manguberdining lashkarboshilari o'lja ustida o'zaro janjallahib qoladilar. Oqibatda Sayfuddin Ig'roq, A'zam malik va Muzaffar maliklar Jaloliddin Manguberdini tark

etadilar. Jaloliddin Manguberdining yonida o'z lashkari bilan faqat Aminalmulk qoladi. Parvon jangidagi mag'lubiyatdan g'azabga kelgan Chingizzxon katta qo'shin to'plab Jaloliddin Manguberdiga qarshi shaxsan o'zi otlanadi. Gardiz qal'asi yaqinidagi jangda Jaloliddin Manguberdi Chingizzxon qo'shinining ilg'ori (old tomonida boruvchi qismi)ni tor-mor keltiradi va kuchi ozligi sababli Sind (Hind) daryosi tomon chekinadi. Chingizzxon qo'shini Jaloliddin Manguberdini daryodan o'tishiga imkon bermay qurshab oladi. 1221-yil 25 noyabrda bo'lgan tengsiz jangda mag'lubiyatga uchragan Jaloliddin Manguberdi 4000 jangchisi bilan Sindning o'ng sohiliga suzib o'tib, cho'l ichkarisiga kirib ketadi (bu cho'l hozir ham Cho'li Jaloliy deb ataladi). Chingizzxon Jaloliddin Manguberdining bu jasoratidan hayratda qolib, o'z o'g'illariga qarab: "Ota o'g'il mana shunday bo'lishi lozim!", degan. Oradan bir necha kun o'tgach, Jaloliddin Manguberdi qo'shini soni 7 mingga yetadi. Unga Ko'lbars bahodir, Kabkuh va Sa'diddin Ali ash-Sharabdor kabi lashkarboshilar o'z kishilari bilan kelib qo'shildi. Jaloliddin Manguberdi Shimoliy Hindistonning notanish cho'lida och, juldur kiyimli jangchilar bilan sargardon bo'lib qoladi. Uning bu holidan foydalanmoqchi bo'lgan Shatra viloyati ranasi (shohi) Jaloliddin Manguberdiga hujum qildi. Jangda Jaloliddin Manguberdining menganlik bilan otgan kamon o'qidan rana halok bo'ladi, qo'shini esa parokanda bo'lib qochadi. Jaloliddin Manguberdi katta o'ljani qo'lga kiritadi. Bu g'alabadan so'ng Sind, Uchcha, Mo'lton, Lohur va Peshovar hokimi Nosiriddin Qubacha (1205—27)ning Nandana va Sakundagi noibi Qamariddin Karmoniy Jaloliddin Manguberdiga o'z xayrixohligini izhor etib, sovg'a-salomlar jo'natadi. Bu vaqtga kelib, Jaloliddin Manguberdining ukasi G'iyosiddin Pirshohdan ajralib ketgan amirlar — Sanjoqonxon, Elchi pahlavon, O'rxon, Soyircha, Tekjoruq Xonkishilar o'z lashkarlari bilan Jaloliddin Manguberdiga qo'shiladilar. Jaloliddin Manguberdi Kalor shahri, Parosravar, Tarnuj qal'alarini qo'lga kiritadi. Mulklarining katta qismidan ajralgan Qubacha 10 ming otliq qo'shini hamda Dehli sulton Shamsuddin Eltutmishdan olgan qo'shimcha kuch bilan Jaloliddin Manguberdiga qarshi jang qiladi, biroq mag'lubiyatga uchraydi. Uning xazinasi, quroq-yarog'larini Jaloliddin Manguberdi o'lja sifatida qo'lga kiritadi. 1222-yil Chingizzxon Jaloliddin Manguberdiga qarshi To'rbay To'qshin va Bola no'ytonni 20 ming kishilik qo'shin bilan jo'natadi. Lekin ular Mo'ltonga qadar borib, shaharni ololmaydilar, jazirama issiqqa dosh berolmay orqaga qaytishadi. Jaloliddin Manguberdi o'ziga qarshi mo'g'ul qo'shinlari jo'natilganligini Parosravar qal'asini olgandan so'ng eshitadi. Jaloliddin Manguberdi Mo'lton tomon yo'l olib Qubacha mulklaridan Uchcha, Sadusan, Xatisor, Deval va Damrillardni qamal qiladi, qo'shini uchun tuyalar zarurligi tufayli Gujarot viloyati markazi Nahrvalga Xosxon boshchiligidagi qo'shin jo'natadi. Shu orada Shamsuddin Eltutmish Jaloliddin Manguberdi ustiga katta qo'shin (30 ming otliq, 100 ming piyoda, 300 ta fil) tortadi. Jaloliddin Manguberdi mardonavorlik bilan raqibiga qarshi chiqadi. Jaloliddin Manguberdining O'zbek Toy Jahon Pahlavon qo'mondonligi ostidagi ilg'ori Eltutmish ilg'ori bilan to'qnashib raqibidan ustun keladi. Eltutmish Jaloliddin Manguberdi huzuriga elchisini yuborib sulh tuzishni so'raydi. Jaloliddin Manguberdi Hindistonda o'z nomidan kumush va mis tangalar zarb qilgan, unga tobe hind mulklarida nomi xutbaga qo'shib o'qilgan. Biroq vaziyat borgan sari murakkablashib bormoqda edi. Eltutmish, Qubacha, shuningdek, Hindistonning boshqa viloyat hokimlari o'zaro til biriktirib Jaloliddin Manguberdiga qarshi ittifoq tuzmoqchi ekanliklari ayon bo'lib qoladi. Jaloliddin Manguberdining ikki lashkarboshisi Yazidak pahlavon va Sunqurjiq Toysilar ham xiyonat qilib Eltutmish tomoniga o'tadilar. Og'ir vaziyatdan qutulish uchun Jaloliddin Manguberdi harbiy kengash chaqiradi. Amirlarning ko'pchiligi Iroqda siyosiy parokandalik hukm surgan bir paytda Iroq tomon yurish qilib, uni G'iyosiddin Pirshohdan tortib olishni taklif qiladi. Jaloliddin Manguberdi o'zining Hindistonda zabit etgan mulklariga O'zbek Toy Jahon Pahlavonni, G'ur va G'azni viloyatlariga Hasan Qarluqni noib sifatida qoldirib, Iroqqa yo'l oladi. Cho'l lu biyobonlarni kesib o'tishda Jaloliddin Manguberdining ko'p jangchilar nobud bo'ladi va nihoyat u 4 ming jangchisi bilan Kirmonga yetib keladi. G'iyosiddin Pirshohning Kirmondagi noibi Baroq Hojib Jaloliddin Manguberdiga tobelik izhor qiladi. Shundan so'n Jaloliddin Manguberdi Fors viloyati markazi Sherozga keladi. Fors hokimi Sa'd ibn Zangiy va Yazd hokimi Alouddavla ibn To'g'onshoh unga tobelik bildirishadi. Jaloliddin Manguberdi Isfahonga kelganda aholi uni katta tantana bilan kutib oladi, qo'shini quroq-asлаha bilan ta'minlanadi. Bu hol G'iyosiddin Pirshohga yoqmaydi, u akasiga qarshi 30 ming otliq qo'shin bilan yo'lga chiqadi. Biroq Jaloliddin Manguberdi unga sovg'a-salomlar bilan Odekni elchi sifatida jo'natadi va o'zaro nizoni tinchlik bilan hal etadi. Qo'shin boshliqlari Jaloliddin Manguberdi tomoniga o'tadi. 1225-yili Jaloliddin Manguberdi Ozarbajonga yurish qiladi. So'ng Bag'dodga qarshi yurishga hozirlik ko'radi. Xalifa Nosirga elchi jo'natib, mo'g'ullarga qarshi birlashishga chaqiradi. Bunga javoban Xalifa Jaloliddin Manguberdiga

qarshi mamluki amir Jamoliddin Qushtemur boshliq 20 ming kishilik qo'shin jo'natadi. Basra yaqinidagi jangda Xalifa qo'shinchilari tor-mor keltiriladi. Xalifa Bag'dod mudofaasi bilan mashg'ul bo'ladi. Jaloliddin Manguberdi Bag'dod atrofida 12 kun turgach, Ozarbayjon tomon ketadi. Ozarbayjon va Arxon hukmdori O'zbek ichkilik, maishatga berilib davlat ishlarini o'z holiga tashlab qo'ygan edi, davlatni amalda uning xotini Malika xotun boshqarardi. 1225-yil mayda Jaloliddin Manguberdi Marog'a shahrini jangsiz qo'lga kiritadi. Damashq, Erbil hokimlari esa u bilan ittifoq tuzishga rozi bo'ladilar. O'zbek Tabrizni tashlab Ganjaga, so'ng Alinjo qal'asiga qochib o'sha yerda vafot etadi. Jaloliddin Manguberdi Malika xotunga uylanadi. Tabrizda bir necha kun turgandan so'ng o'z qo'shinchiligi Gruziya tomon boshlaydi. 1225-yil avgustda Garni qal'asi yaqinida gurjilarning Ivane Mxargrdzeli boshliq 60 ming kishilik qo'shinchiligi tor-mor keltiradi va Tiflisga qarab yuradi. Gruziya malikasi Rusudana Kutaisiga ko'chib o'tadi. Jaloliddin Manguberdi Dvin, Lori shaharlarini egallaydi, Surmari shahri hokimi o'z tobeligini bildiradi. 1227-yil sentabrda Isfahondan 30 chaqirim sharqdagi Sin qishlog'i yaqinida Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullarning Taynol no'yon boshliq qo'shinchiligi yengadi. Taynol no'yon Jaloliddin Manguberdi haqida: "Zamonasining haqiqiy bahodiri ekan, o'z tengqurlarining sarvari ekan", degan. Jaloliddin Manguberdining Ko'niya sultonai Alouddin Kayqubod, Jazira hokimi al-Malik al-Ashraf Muzaffariddin Muso, Damashq hokimi al-Malik al-Muazzam Sharafiddin Iso va Misr hokimi al-Malik al-Komil Muhammadga nomalar yozib, mo'g'ullarga qarshi kurashda ularni birlashtirish yo'llidagi xattiharakatlari behuda ketadi. Ustiga-ustak Alouddin Kayqubod muxolif kuchlami Jaloliddin Manguberdiga qarshi birlashtirishga muvaffaq bo'ladi va 1230-yil 10-avgustda Arzinjon yaqinidagi jangda Jaloliddin Manguberdini mag'lubiyatga uchratadi. Jaloliddin Manguberdining kuchsizlanganidan foydalangan mo'g'ullar katta qo'shin bilan Ozarbayjonga bostirib kiradilar va Marog'a, Tabrizni egallab (1231-yil), Jaloliddin Manguberdini ta'qib etishgan. Mayofariqin viloyatidagi qishloqlardan birida mo'g'ullar tungi hujum natijasida Jaloliddin Manguberdining oz sonli qo'shinchiligi tor-mor keltiradilar, Jaloliddin Manguberdining o'zi esa ta'qibdan qutulish uchun Kurdiston tog'lariga chiqib ketadi. Bu yerda qaroqchi kurdlar qo'liga asir tushib qoladi va fojiali ravishda halok bo'ladi. Jaloliddin Manguberdi haqida uning shaxsiy kotibi, tarixchi, Ashxobod yaqinidagi Xurandiz qal'asi hokimi Nasaviy shunday yozadi: "Jaloliddin qorachadan kelgan, o'rta bo'yli, turk lafzli odam edi. Fors tilini ham yaxshi bilardi. Uning botirligiga kelganda shuni aytish kerakki, sulton arslonlar orasidagi eng kuchli sher edi. Bir so'zli, kek saqlamaydigan, ochiq ko'ngil, to'g'ri odam edi. U jiddiy shaxs edi. Hech qachon kulmasdi. Juda nari borsa, jilmayib qo'yardi. U adolatsizliklarni yomon ko'rardi. Jaloliddin o'ta qat'iyatli, nihoyatda irodali, murakkab vaziyatlarda, taqdirning qaltis sinovlarida o'zini yo'qotib qo'ymaydigan favqulodda mard va botir sarkarda edi". O'zbekiston hukumati Jaloliddin Manguberdining mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda ko'rsatgan mislsiz jasorati, vatanga va o'z xalqiga sadoqat va cheksiz muhabbatini qadrlash va uning porloq ruhini abadiylashtirish maqsadida "Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash haqida" qaror qabul qildi (1998-yil). Qarorga ko'ra, uning yurti Xorazmda Jaloliddin Manguberdiga haykal o'rnatildi, yirik ko'cha, maydon va boshqalarga uning nomi qo'yildi. Jaloliddin Manguberdi haqida videofilm, doston, pyesa va boshqalar yaratilgan. "Jaloliddin Manguberdi" ordeni (oliy harbiy mukofot) ta'sis etilgan (2000-yil 30-avgust). Shu o'rinda xalq qahramoni to'g'risida yaratilgan badiiy asarlar haqida ham to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Bu borada ham bugungi kun talablariga javob bermaslik, noholislik hamda biryoqlamalik holatlari uchraydi. Jumladan o'zbek kitobxonlarining bir nechta avlodni o'qigan va o'rgangan Vasiliy Yanning «Chingizzon» romani haqida shunday fikr bildirish mumkin. Unda Jaloliddin Manguberdining shaxsini, avlodlarini, umuman olganda milliy qiyofasini aniq-ravshan tasavvur qilolmaslik holati ko'zga tashlanadi. Uzuq-yuluq voqealar davomida uning siyoshi to'laqonli aks etmasdan qolgan. Jaloliddin Manguberdining Sind daryosini kechib o'tgandan so'nggi hayoti va jasorati haqida muallif sukut saqlashni afzal bilgan. Buni tushunsa bo'ladi. Chunki «Chingizzon» romani o'tgan asrning dahshatli 30- yillari oxirlarida yaratilgan. Shu sababli yozuvchi «xalqlar otasining» qaxru g'azabiga uchrashdan cho'chigan. Umrining so'ngida ham tovba tazarru qilmagan, ammo bu dunyodan behad armon bilan ketgan Chingizzonni o'zi yashirin ixlos qo'ygan shu «otaga» ibrat qilib ko'rsatishga intilgan bo'lsa ne ajab.? V.Yan shu davrda Jaloliddin Manguberdini asarning asosiy qahramoni qilib ko'rsata bilmasdi. Binobarin, asarini uning nomi bilan atay olmasdi. Balki buni uning o'zi istamagandir ham. Har xolda «Chingizzon» asari bugungi o'quvchini hech bir jihatdan qanoatlantirmay qolgan deyish mumkin.

Bu hol olimlarimiz va adiblarimiz qadimiy va undan keyingi manbalar asosida Jaloliddin Manguberdi hayotini

qayta o'rganib, voqeа xodisalarni holis va chuqur taxlil qilib, yangi davr nuqtai nazaridan munosabatlar bildirib, yangi asarlar yaratishlari lozimigini taqozo etadi. Jaloliddin Maguberdining shaxsiy kotibi Shaxobiddin An Nasaviy shunday yozadi «U sherlarning sheri va otliq yigitlar ichida eng dovyuragi edi. U yumshoq edi, jahli chiqmas edi, so'kinmasdi ham, u jiddiy edi, hech qachon kulmasdi, faqat jilmayardi va kamgap edi. U adolatni sevardi, biroq u duch kelgan suronli yillar uning ustidan g'alaba qildi va uning fe'lini o'zgartirdi. U fuqarolarning hayotini osonlashtirishni yoqtirardi, lekin tanazzul paytida boshqargani uchun jabr qilishgacha bordi».

Foydalanimanadabiyotlar ro'yxati:

- 1.Shaxobiddin Muhammad al-Nasaviy, Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti, T., 1999; 2.Jaloliddin Manguberdi (o'zbek, ingliz, rus tilida), T., 1999; 3.Jaloliddin Manguberdi, Vatan, yurt himoyachisi, T., 1999; 4.Buniyotov 3., Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097—1231), T., 1998; 5.Toshev N., Jaloliddin Manguberdi, T., 1999; 6.Bo'riev O., Toshev N., Jaloliddin Manguberdi, T., 1999;

7. <http://xorazmiy.uz>